

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION XIZMATLARNING MONETIZATSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Sanayev Javohir Shavkat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida innovatsion xizmatlarning monetizatsiya samaradorligini baholashning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Innovatsion xizmatlardan olinadigan bevosita daromad, ularning bank resurs bazasiga ta'siri natijasida shakllanadigan bilvosita iqtisodiy samara hamda kapitalning muqobil qiymatini kompleks hisobga olishga asoslangan to'liq monetizatsiya koeffitsiyentidan (TMK) foydalanish yondashuvi asoslangan. 2021–2025-yillar ma'lumotlari asosida Turonbank va ayrim tijorat banklarining TMK ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Turonbankda TMK 2023-yildagi $-0,035$ dan 2025-yilda $0,237$ gacha oshib, belgilangan $0,15-0,35$ maqbul diapazonga kirgan. Olingan natijalar innovatsion aktivlarning moliyaviy qaytimini baholashda bevosita va bilvosita monetizatsiya kanallarini o'zaro bog'liq holda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tijorat banki, innovatsion bank xizmatlari, monetizatsiya, to'liq monetizatsiya koeffitsiyenti, innovatsion aktivlar, bilvosita iqtisodiy samara, kapitalning muqobil qiymati, moliyaviy samaradorlik.

KIRISH

Jahon bank tizimida raqamli transformatsiyaning jadallashuvi bank xizmatlarining ko'lami, tranzaksiyalar soni va mijozlar qamrovini keskin oshirayotgan bo'lsa-da, innovatsion xizmatlarning kengayishi har doim ham bankning moliyaviy natijalariga mutanosib ravishda aylanmayapti. McKinsey & Company'ning *Global Payments Report 2025* hisobotiga ko'ra, global to'lovlar industriyasi $3,6$ trln tranzaksiya va qariyb $2,0$ kvadrillion AQSh dollari qiymatidagi pul oqimlari hisobiga $2,5$ trln AQSh dollari daromad shakllantirgan. Shu bilan birga, global to'lovlar daromadining o'sish sur'ati 2023-yildagi 12 foizdan 2024-yilda 4 foizgacha sekinlashgan [1].

Bundan tashqari, Bank Director'ning 2024-yilgi Technology Survey natijalariga ko'ra, bank rahbarlari va yuqori boshqaruv vakillarining 68 foizi texnologik loyihalarga kiritilgan investitsiyalar qaytimini (ROI) muntazam o'lchamaydi [2]. Raqamli banklar faoliyatida ham shunga o'xshash nomutanosiblik kuzatilmoqda: Simon-Kucher'ning 2026-yilgi global tadqiqotiga ko'ra, neobanklar yangi bank munosabatlarining 39 foizini va barcha hisobvaraqlarning 19 foizini egallaganiga qaramay, global chakana bank daromadlarining atigi 5 foizga yaqinini shakllantirmoqda [3].

Mazkur statistik ko'rsatkichlar innovatsion xizmatlarning ommalashuvi,

tranzaksion faollik va mijozlar sonining o'sishi o'z-o'zidan ularning iqtisodiy samaradorligi hamda monetizatsiya darajasining yuqori ekanligini anglatmasligini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, innovatsion bank xizmatlarini baholashda ularning texnologik yangiligi yoki foydalanuvchilar sonidan ko'ra, bank uchun yaratadigan real moliyaviy qaytimini aniqlash ustuvor ilmiy-amaliy vazifaga aylanmoqda.

Tadqiqotning nazariy asosida ham innovatsion bank xizmatlarini faqat yetkazib berish kanali, dasturiy yechim yoki avtomatlashtirish darajasi orqali tavsiflash ularning bank daromadlari, resurs bazasi va kapital bilan bog'liq iqtisodiy natijasini to'liq ochib bermasligi ta'kidlangan; shuningdek, mijozlar va tranzaksiyalar sonining ortishi daromadlarning mutanosib o'sishini kafolatlamasligi asoslangan.

Shu sababli tijorat banklarida innovatsion xizmatlardan olinadigan iqtisodiy samarani ularni yaratish va rivojlantirishga jalb etilgan aktivlar bilan o'zaro bog'liq holda baholash, innovatsion aktivlarning haqiqiy moliyaviy qaytimini aniqlash hamda monetizatsiya samaradorligining mezonlarini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi innovatsion bank xizmatlarining monetizatsiya samaradorligini baholashga oid mavjud yondashuvlarni takomillashtirish va innovatsion aktivlardan olinadigan sof iqtisodiy samarani ifodalovchi to'liq monetizatsiya koeffitsiyenti (TMK) asosida ularning moliyaviy natijadorligini baholash yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda innovatsion bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi, ularning bank faoliyatiga ta'siri hamda moliyaviy natijadorligini baholash masalalari turli nazariy va metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Jumladan, J. Shumpeter innovatsiyani iqtisodiy tizimda sifat jihatidan yangi o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi hamda amaliyotga joriy etilishi natijasida muayyan iqtisodiy samara beradigan yangilik sifatida talqin qilgan [4]. Uning fikricha, innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim omillardan biridir. R. Merton esa moliyaviy innovatsiyalarni moliyaviy institutlarning asosiy funksiyalarini yanada samarali bajarishga, resurslardan oqilona foydalanishga va mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga imkon beruvchi vosita sifatida baholaydi [5].

W.S. Frame va L.J. White moliyaviy innovatsiyalarni tadqiq etar ekan, ularning iqtisodiy samarasini miqdoriy jihatdan aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqotlar yetarli darajada shakllanmaganligini ta'kidlaydi [6]. Mualliflar moliyaviy innovatsiyalarning bank xarajatlari, daromadlari, samaradorlik ko'rsatkichlari va raqobatbardoshlikka ta'sirini kompleks baholash zarurligiga alohida e'tibor qaratgan. E. Beccalli esa Yevropa banklari faoliyati misolida axborot texnologiyalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining oshishi bank samaradorligini avtomatik ravishda yaxshilamasligini asoslab bergan. Tadqiqot natijalari texnologik investitsiyalarning moliyaviy natijalarga ta'sirini alohida baholash hamda ularning real iqtisodiy qaytimini aniqlash zarurligini ko'rsatadi [7].

Mahalliy olimlar tomonidan ham bank xizmatlarini innovatsion rivojlantirish,

raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ularning bank faoliyati samaradorligiga ta'siri keng o'rganilgan. Xususan, M. Ataniyazova bank innovatsiyalarini yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish orqali mijozlarning o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini qondirish hamda bankning daromadlilik va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan faoliyat sifatida izohlaydi [8]. Ushbu yondashuvda innovatsiyalar bankning bozor mavqeini mustahkamlash va mijozlar bazasini kengaytirish vositasi sifatida qaraladi.

Z.T. Mamadiyarov masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishini bank jarayonlarini avtomatlashtirish, blokcheyn, biometrik identifikatsiya, sun'iy intellekt va boshqa zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan bog'laydi [9]. Mazkur texnologiyalardan foydalanish operatsion xarajatlarni kamaytirish, bank xizmatlarini ko'rsatish tezligini oshirish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash imkonini beradi. Q.N. Xusanov esa innovatsion bank xizmatlarini bankning umumiy innovatsion strategiyasi tarkibiy qismi sifatida baholab, ularni bank faoliyatining uzoq muddatli rivojlanishi va barqarorligini ta'minlovchi omillardan biri sifatida ko'rsatadi [10].

Shu bilan birga, o'rganilgan ilmiy manbalarda innovatsion xizmatlarni joriy etishga yo'naltirilgan aktivlar va investitsiyalar hisobiga shakllanadigan sof iqtisodiy samara, ushbu xizmatlarning bank daromadlariga real hissasi hamda ularning monetizatsiya darajasini yagona miqdoriy mezon asosida baholash masalasi yetarlicha chuqur yoritilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda innovatsion xizmatlarning texnologik, tashkiliy yoki funksional jihatlarga ko'proq e'tibor qaratilib, ularning moliyaviy qaytimi kompleks ko'rsatkichlar yordamida baholanmagan.

Shu nuqtayi nazardan, innovatsion bank xizmatlariga jalb qilingan resurslarning iqtisodiy natijadorligini aniqlash, ular orqali olingan sof moliyaviy samara va daromadlarning monetizatsiya darajasini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Innovatsion xizmatlarning moliyaviy qaytimini to'liq monetizatsiya koeffitsiyenti asosida baholash bank innovatsiyalarining real iqtisodiy samaradorligini aniqlash, innovatsion loyihalar bo'yicha boshqaruv qarorlarini asoslash hamda mavjud ilmiy-uslubiy yondashuvlarni yanada rivojlantirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy va statistik-iqtisodiy tahlil, koeffitsiyentlar usuli hamda moliyaviy ko'rsatkichlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tijorat banklarining MHXS asosida auditdan o'tgan moliyaviy hisobotlari va rasmiy statistik ma'lumotlar asosida innovatsion aktivlardan olinadigan iqtisodiy samara tahlil qilinib, ularning monetizatsiya samaradorligi to'liq monetizatsiya koeffitsiyenti (TMK) orqali baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida innovatsion xizmatlarning moliyaviy samaradorligini baholashda faqat ushbu xizmatlardan olinadigan komissiya daromadlariga tayanish ularning bank faoliyatiga real iqtisodiy ta'sirini to'liq ifodalamasligi mumkin. Tadqiqotda taklif etilgan to'liq monetizatsiya koeffitsiyenti (TMK) innovatsion

xizmatlardan olinadigan bevosita daromad bilan bir qatorda, ular hisobiga shakllanadigan bilvosita iqtisodiy samarani ham qamrab oladi hamda innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan kapitalning muqobil qiymatini hisobga oladi. Shu jihatdan TMK innovatsion xizmatlarni ta'minlovchi aktivlardan olinadigan sof iqtisodiy qaytimni kompleks baholash imkonini beradi.

TMKning iqtisodiy mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$TMK = \frac{BD + BIS - KMQ}{IAB}$$

bu yerda BD — innovatsion xizmatlardan olinadigan bevosita daromad; BIS — innovatsion xizmatlarning bilvosita iqtisodiy samarasi; KMQ — innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan kapitalning muqobil qiymati; IAB — innovatsion xizmatlarni ta'minlovchi aktivlar bazasi.

Tadqiqot metodikasida bilvosita iqtisodiy samara joriy va hisob-kitob hisobvaraqlaridagi mablag'larning bank resurslari qiymatiga ta'siri orqali baholanadi. Bu yondashuv innovatsion xizmatlar natijasini nafaqat daromad olish, balki nisbatan arzon resurs bazasini shakllantirish nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish imkonini beradi.

TMK metodikasining xalqaro amaliyotda qo'llanish imkoniyatini baholash maqsadida tadqiqotda Singapurning DBS Group banki ochiq va auditlangan moliyaviy ma'lumotlariga mualliflik metodikasi tatbiq etilgan. Bunda hisoblangan ko'rsatkich DBS tomonidan e'lon qilingan rasmiy TMK emas, balki qiyosiy tahlil uchun shakllantirilgan proksi-TMK hisoblanadi.

1-jadval

DBS Groupda innovatsion xizmatlarning monetizatsiya samaradorligi, 2021–2025-yillar

Ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
Bevosita daromad, mln SGD	1 640,0	1 787,0	1 948,0	2 158,0	2 167,0
Joriy va jamg'arma hisobvaraqlari, mln SGD	381 361	317 582	285 992	291 066	332 486
Resurslarning hisobiy qiymati, %	0,296	0,806	2,253	2,374	1,791
Bilvosita iqtisodiy samara, mln SGD	1 129,1	2 561,1	6 442,9	6 910,7	5 953,8
Kapitalning muqobil qiymati, mln SGD	93,8	106,3	117,9	122,3	116,5
Innovatsion aktivlar bazasi, mln SGD	1 042	1 181	1 310	1 359	1 294
Proksi-TMK	2,57	3,59	6,32	6,58	6,19

Jadval natijalariga ko'ra, DBS Groupda proksi-TMK 2021-yildagi 2,57 dan 2024-yilda 6,58 gacha oshgan, 2025-yilda esa 6,19 darajasida shakllangan. Mazkur dinamika innovatsion va tranzaksion xizmatlarning nafaqat bevosita komissiya daromadlari, balki joriy va jamg'arma hisobvaraqlari orqali yuzaga keladigan bilvosita resurs samarasini ham shakllantirishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, proksi-TMKning mutlaq qiymatlarini O'zbekiston banklari bilan to'g'ridan-to'g'ri solishtirish maqsadga muvofiq emas, chunki aktivlar bazasining tarkibi, moliyalashtirish qiymati va bank biznes modeli farqlanadi.

2-jadval

ATB "Turonbank" innovatsion xizmatlarining bilvosita iqtisodiy samarasi, 2021–2025-yillar, mln so‘m

Ko‘rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
Joriy hisobvaraqlardagi mablag‘lar (JHV)	1 215 482	1 338 783	1 292 820	1 661 677	2 359 488
Mijozlar hisobvaraqlari (MH)	2 551 642	3 002 274	4 216 334	4 740 544	7 425 357
Boshqa jalb qilingan mablag‘lar (BJM)	5 505 466	6 719 504	8 176 876	9 044 930	10 294 493
Boshqa banklar oldidagi majburiyatlar (BM)	937 614	1 251 521	1 435 397	1 527 871	1 459 263
Jami foizli majburiyatlar (FM)	8 994 722	10 973 299	13 828 607	15 313 345	19 179 113
Foizli xarajatlar (FX)	490 913	611 832	814 644	1 206 109	1 405 787
Bilvosita iqtisodiy samara (BIS)	66 240	74 646	76 160	129 793	169 673

Turonbankda bilvosita iqtisodiy samaraning 2021-yildagi 66 240 mln so‘mdan 2025-yilda 169 673 mln so‘mgacha, ya’ni qariyb 2,6 barobar oshgani kuzatiladi. Mazkur o‘shishda joriy hisobvaraqlardagi mablag‘larning 1,22 trln so‘mdan 2,36 trln so‘mgacha kengayishi muhim rol o‘ynagan. Bu holat innovatsion hisob-kitob va raqamli xizmatlarning bank uchun qiymati faqat komissiya tushumlari bilan cheklanmasdan, nisbatan arzon va barqaror resurs bazasini shakllantirish orqali ham namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi.

3-jadval

ATB "Turonbank"da innovatsion xizmatlarning to‘liq monetizatsiya koeffitsiyenti hisob-kitobi, 2021–2025-yillar, mln so‘m

Yil	Bevosita daromad (BD)	Bilvosita iqtisodiy samara (BIS)	Kapitalning muqobil qiymati (KMQ)	Innovatsion aktivlar bazasi (IAB)	TMK
2021	44 639	66 240	64 771	416 729	0,111
2022	53 303	74 646	114 230	581 046	0,024
2023	47 749	76 160	152 936	820 576	–0,035
2024	58 840	129 793	135 845	971 046	0,054
2025	72 761	169 673	67 380	738 948	0,237

Jadval ma’lumotlari Turonbankda TMK dinamikasi bir tekis bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. Koeffitsiyent 2021-yildagi 0,111 dan 2022-yilda 0,024 gacha pasayib, 2023-yilda –0,035 qiymatga tushgan. Ushbu holat 2021–2023-yillarda innovatsion va infratuzilmaviy aktivlarga yo‘naltirilgan mablag‘larning o‘shishi ulardan olinadigan iqtisodiy samaraning shakllanish sur‘atidan yuqori bo‘lganligi bilan izohlanadi. Ya’ni texnologik investitsiyalar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ular hali to‘liq monetizatsiya bosqichiga o‘tmagan. 2024-yildan boshlab esa teskari tendensiya shakllanib, TMK

0,054, 2025-yilda esa 0,237 darajasiga ko'tarilgan. Tadqiqotda ushbu natija investitsiyalarning iqtisodiy samara yaratish bosqichiga o'tganligini anglatuvchi holat sifatida baholangan.

Ayniqsa, 2025-yilgi natija muhim ahamiyat kasb etadi. Turonbankning innovatsion xizmatlardan olgan bevosita daromadi 72,8 mlrd so'm, bilvosita iqtisodiy samarasi esa 169,7 mlrd so'mni tashkil etgan. Shu bilan birga, kapitalning muqobil qiymati 2024-yildagi 135,8 mlrd so'mdan 2025-yilda 67,4 mlrd so'mgacha kamaygan. Natijada sof monetizatsiya samarasi sezilarli yaxshilanib, TMK 0,237 ga yetgan. Dissertatsiyada TMK uchun 0,15–0,35 oralig'i maqbul zona sifatida asoslanganligi hisobga olinsa, Turonbank 2025-yilda ushbu mezon bo'yicha maqbul samaradorlik zonasiga kirgan.

4-jadval

Tanlangan tijorat banklarida TMK dinamikasining qiyosiy tahlili

Bank	2021	2022	2023	2024	2025
Biznesni rivojlantirish banki	0,140	0,133	0,241	0,127	0,309
Xalq banki	–0,013	–0,192	–0,094	0,000	0,058
Turonbank	0,111	0,024	–0,035	0,054	0,237

Qiyosiy tahlil banklar o'rtasida innovatsion xizmatlarni monetizatsiya qilish samaradorligi sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Biznesni rivojlantirish bankida TMK 2021–2025-yillarda 0,127–0,309 oralig'ida shakllanib, 2025-yilda 0,309 qiymat bilan nisbatan yuqori natijani qayd etgan. Tadqiqotda bu bankdagi TMK dinamikasining muhim omillaridan biri mijozlarning joriy hisobvaraqlaridagi mablag'lar va ular orqali shakllanadigan bilvosita iqtisodiy samaraning o'sishi ekanligi aniqlangan.

Xalq bankida esa vaziyat boshqacha bo'lib, 2021–2023-yillarda TMK manfiy qiymatlarni qayd etgan va 2025-yilda ham atigi 0,058 ga yetgan. Manfiy TMK innovatsion xizmatlarning bevosita va bilvosita iqtisodiy samarasi kapitalning muqobil qiymatini qoplash uchun yetarli bo'lmaganligini anglatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bunga bankning yuqori sof foiz marjasi va aktivlar tarkibida jismoniy infratuzilmaning salmoqli o'rin egallashi ta'sir qilgan.

5-jadval

To'liq monetizatsiya koeffitsiyentini (TMK) baholashning chegaraviy mezonlari

TMK qiymati	Baholash zonasi	Iqtisodiy mazmuni
0,15 dan past	Rivojlanish zonasi	Innovatsion aktivlar hali kapital xarajatlarini yetarli darajada qoplamagan
0,15–0,35	Maqbul zona	Innovatsion aktivlardan sog'lom va barqaror sof iqtisodiy natija olinmoqda
0,35 dan yuqori	Diqqat zonasi	Natija odatiy diapazondan chetga chiqqan; aktivlar bazasi va hisob-kitob metodikasini qo'shimcha tahlil qilish talab etiladi

Tahlilning yana bir muhim metodologik natijasi shundan iboratki, TMK qiymatini banklar kesimida mexanik tarzda taqqoslash har doim ham ilmiy jihatdan

to'g'ri emas. Xususan, Mikrokreditbankda koeffitsiyent 2021-yilda 40,53, 2025-yilda 8,92 ni tashkil etgan bo'lsa-da, mazkur yuqori qiymatlar bankning dasturiy ta'minot aktivlari bazasi boshqa banklarga nisbatan juda kichik ekanligi bilan izohlanadi. Shu sababli dissertatsiyada Mikrokreditbank natijalarini asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning birlashtirilgan bazasi bo'yicha hisoblangan Turonbank, BRB va Xalq banki natijalari bilan to'g'ridan-to'g'ri solishtirish metodologik jihatdan cheklanganligi qayd etilgan.

Taklif etilgan chegaraviy yondashuv TMKni faqat "yuqori" yoki "past" ko'rsatkich sifatida talqin qilishdan voz kechib, uning iqtisodiy mazmunini bosqichma-bosqich baholash imkonini beradi. Xususan, 0,15–0,35 oralig'i innovatsion aktivlarning kapital xarajatlarini qoplab, barqaror sof iqtisodiy natija yaratayotgan maqbul holatni ifodalaydi. Turonbankning 2025-yildagi 0,237 natijasi ushbu maqbul zonaga mos keladi.

Umuman, o'tkazilgan tahlil innovatsion bank xizmatlarining samaradorligini faqat raqamli xizmatlar soni, tranzaksiyalar hajmi yoki komissiya tushumlari orqali baholash yetarli emasligini ko'rsatadi. TMKning ilmiy-amaliy afzalligi shundaki, u innovatsion xizmatlarning bevosita monetizatsiyasi, resurs bazasi orqali shakllanadigan bilvosita iqtisodiy samara hamda kapitalning muqobil qiymatini yagona ko'rsatkich doirasida birlashtiradi. Shu sababli mazkur koeffitsiyentdan tijorat banklarida texnologik investitsiyalar samaradorligini monitoring qilish, past monetizatsiyaga ega loyihalarni aniqlash va innovatsion aktivlarga investitsiya qilish bo'yicha boshqaruv qarorlarini asoslashda foydalanish mumkin.

XULOSA

O'tkazilgan tahlillar tijorat banklarida innovatsion xizmatlarning moliyaviy samaradorligini baholashda faqat bevosita komissiya daromadlariga tayanish yetarli emasligini ko'rsatdi. Innovatsion xizmatlarning bank uchun yaratadigan iqtisodiy qiymati ularning resurs bazasiga ta'siri, kapitalning muqobil qiymati hamda ushbu xizmatlarni ta'minlovchi aktivlarning hajmi bilan kompleks bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli to'liq monetizatsiya koeffitsiyenti (TMK) innovatsion xizmatlarning bevosita va bilvosita moliyaviy qaytimini yagona ko'rsatkich asosida baholash imkonini beruvchi muhim uslubiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Empirik natijalar Turonbankda TMK ko'rsatkichining 2021-yildagi 0,111 dan 2023-yilda –0,035 gacha pasayib, 2025-yilda 0,237 darajaga ko'tarilganini ko'rsatdi. Mazkur natija bankda innovatsion va infratuzilmaviy investitsiyalarning dastlabki bosqichdagi xarajatlari keyingi davrda iqtisodiy samara yaratish bosqichiga o'tganini ifodalaydi. Shuningdek, 2025-yilda TMKning 0,15–0,35 oralig'idagi maqbul zonaga kirgani innovatsion aktivlardan foydalanish samaradorligi yaxshilanganini ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, tijorat banklarida innovatsion xizmatlarni rivojlantirishda ularning soni yoki texnologik yangiligiga emas, balki real moliyaviy qaytimiga ustuvor e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Amaliyotda TMKni muntazam hisoblash, innovatsion aktivlar samaradorligini monitoring qilish va natijalarni belgilangan chegaraviy mezonlar bilan taqqoslash banklarga past qaytimli texnologik investitsiyalarni aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda

innovatsion xizmatlarga yo'naltiriladigan investitsion qarorlarni iqtisodiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. McKinsey & Company. *The 2025 McKinsey Global Payments Report: Competing Systems, Contested Outcomes*. 26 September 2025. McKinsey Global Payments Report 2025
2. FinXTech / Bank Director. *Why — and How — Financial Institutions Should Measure Their Tech ROI*. September 26, 2024. Bank Director 2024 Technology Survey ma'lumotlari. FinXTech — Technology ROI
3. Simon-Kucher. *Global Neobanking Study 2026*. 28 April 2026. Simon-Kucher Global Neobanking Study 2026
4. Merton R. C. A Functional Perspective of Financial Intermediation // *Financial Management*. – 1995. – Vol. 24. – No. 2. – P. 23–41.
5. Frame W.S., White L.J. *Empirical Studies of Financial Innovation: Lots of Talk, Little Action?* // *Journal of Economic Literature*. 2004. Vol. 42, No. 1. P. 116–144.
6. Beccalli E. *Does IT Investment Improve Bank Performance? Evidence from Europe* // *Journal of Banking & Finance*. 2007. Vol. 31, No. 7. P. 2205–2230.
7. Schumpeter J. A. *The Theory of Economic Development*. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1934.
8. Ataniyazova M. Tijorat banklarining innovatsion faoliyati xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar va ularga mualliflik munosabatlari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2015. – № 1. – B. 1–6.
9. Mamadiyarov Z. T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish : iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 56 b.
10. Xusanov Q. N. Innovatsion bank xizmatlarini ko'rsatishning nazariy asoslari // *Moliya va bank ishi*. – 2022. – Jild 8. – № 1. – B. 33–36.